



DAVLAT OLIV TA'LIM TASHKILOTLARIDA DAROMADLAR, XARAJATLAR HISOB VA ICHKI AUDIT NATIJALARINI UMUMLASHTIRISH

Xusainov Xasan Baratovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchisi, Toshkent O'zbekiston.
Email: khusainovkhasa@gmail.com
ORCID:0042-0045-0520-0022

SUMMARY OF INCOME, EXPENDITURE ACCOUNTING AND INTERNAL AUDIT RESULTS IN STATE HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Khusainov Khasan Baratovich

Doctoral student at Tashkent State
University of Economics
E-mail: khusainovkhasa@gmail.com
ORCID:0042-0045-0520-0022

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida budget tashkilotlarida ichki audit samaradorligini oshirish masalalari har tomonlama tahlil qilingan. Ichki audit tizimi budget tashkilotlarida moliyaviy resurslardan oqilona, maqsadli va qonuniy foydalanilishini ta'minlashda muhim boshqaruv vositasi hisoblanadi. Ichki audit faoliyatining samaradorligi budget intizomini mustahkamlash, moliyaviy qonunbuzarliklarning oldini olish hamda tashkilot faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda ichki audit tushunchasining mazmuni, uning vazifalari va funksiyalari hamda budget tashkilotlari faoliyatidagi o'rni yoritib berilgan. Shuningdek, ichki audit tizimini tashkil etishning amaldagi holati tahlil qilinib, mavjud muammolar va kamchiliklar aniqlangan. Ichki audit faoliyatida risklarga asoslangan yondashuv, rejalashtirish jarayonlari, audit natijalarini baholash hamda ularning boshqaruv qarorlariga ta'siri masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ishda ichki audit samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari sifatida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, audit xodimlarining kasbiy malakasini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish hamda xalqaro audit standartlaridan foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Ichki audit natijalaridan samarali

foydalanish orqali budget mablag'laridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish va moliyaviy risklarni kamaytirish imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari budget tashkilotlarida ichki audit tizimini yanada rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish hamda davlat moliyaviy boshqaruvi tizimida ichki auditning rolini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar va takliflarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Abstract: This study provides a comprehensive analysis of issues related to increasing the effectiveness of internal audit in budgetary organizations. The internal audit system is an important management tool that ensures the efficient, targeted, and lawful use of financial resources in budgetary organizations. The effectiveness of internal audit activities plays a significant role in strengthening budgetary discipline, preventing financial violations, and ensuring transparency and accountability in organizational activities. The study reveals the essence of the concept of internal audit, its functions and objectives, as well as its role in the activities of budgetary organizations. In addition, the current state of the organization of the internal audit system is analyzed, and existing problems and shortcomings are identified. Particular attention is paid to the application of a risk-based approach in internal audit, planning processes, evaluation of audit results, and their impact on

managerial decision-making. The paper substantiates the need to improve the regulatory and legal framework, enhance the professional qualifications of audit personnel, introduce modern information technologies, and apply international auditing standards in order to increase the effectiveness of internal audit. The possibilities of strengthening control over the use of budgetary funds and reducing financial risks through the effective use of internal audit results are demonstrated. The results of the study are aimed at the further development of the internal audit system in budgetary organizations, increasing its effectiveness, strengthening the role of internal audit in the public financial management system, and developing scientific and practical conclusions and recommendations.

Kalit soʻzlari: *budget tashkilotlari, audit, ichki audit, moliyaviy qonunbuzarliklar, risklar, budget intizomi.*

Keywords: *budgetary organizations, audit, internal audit, financial violations, risks, budgetary discipline.*

KIRISH

Ichki audit korporativ boshqaruvning muhim tarkibiy qismidir. Ichki auditning vazifasi – tashkilotdagi boshqaruvning ishonchliligi va sifatini, shuningdek ichki nazorat tizimining holatini baholashni taʼminlashdir. Har qanday yangi tizimni har bir mamlakatda tashkil etishni oʻrganish, avvalo, unga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish orqali amalga oshirilishi lozim. Normativ-huquqiy hujjatlar tizimning paydo boʻlishidan tortib, undagi oʻzgarishlarga barcha tashkiliy masalalarni keng qamrovda yoritishi mumkin. Shu sababli, biz Oʻzbekistondagi budget tashkilotlarida ichki auditning tashkil etilishini ichki auditga oid normativ hujjatlar asosida tahlil qilamiz. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustidagi “Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorida quyidagilar davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi ekanligi keltirib oʻtilgan:

ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi, shu jumladan, baholashni rejalashtirish va amalga oshirish; baholashni amalga oshirishda tomonlarning huquq va majburiyatlari;

baholash natijalari hisobotlarini rasmiylashtirish hamda ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish choralari koʻrish;

baholash natijalari monitoringini yuritish hamda ularni jamoatchilikka eʼlon qilish [1].

Shuningdek, ichki audit tizimining samaradorligini baholash Oʻzbekiston budget tashkilotlarining strategik rivojlanishiga, shaffof va hisobdor boshqaruv tizimini shakllantirishga, moliyaviy nazoratning samarali mexanizmlarini joriy etishga yordam beradi. Natijada davlat moliyasini boshqarish sifati oshadi, mablagʻlarning noqonuniy ishlatilishining oldi olinadi va jamiyatdagi moliyaviy ishonch mustahkamlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Budget tashkilotlarida ichki audit samaradorligini oshirish sohasida bir qator xorijiy olimlar oʻz ilmiy izlanishlarini olib borishgan:

J.Guthrie oʻzining “Public Sector Audit of Programmes and Management in Australia (1987) tadqiqotida ichki audit va tashqi auditning davlat dasturlarini baholashdagi roli va ularning boshqaruv jarayonida yuzaga keladigan muammolarini koʻrib chiqadi. Guthrie audit faoliyatini faqat moliyaviy nazorat bilan cheklab qoʻyishning yetarli emasligini taʼkidlab, auditorlar oldida samaradorlik va boshqaruv natijalarini baholash masalalari ham turganini koʻrsatadi. Ushbu maqola davlat auditining yangi shakllari va yondashuvlari, xususan, ijro etilayotgan dasturlarni baholashda audit jarayonining qanday qoʻllanilishi mumkinligini yoritadi [2].

L.Sawyer, M.Dittenhofer, & J.H.Scheiner oʻzlarining “Sawyer’s Internal Auditing: The Practice of Modern Internal Auditing” (2003) asarida ichki auditning nazariy va amaliy jihatlarini keng qamrovda yoritadi. Asarda ichki auditning tashkilotlarda moliyaviy, operatsion va strategik boshqaruv jarayonlaridagi roli, auditorlar vazifalari va masʼuliyati batafsil tahlil qilinadi. Sawyer ichki auditni faqat moliyaviy tekshiruv

vositasi sifatida emas, balki boshqaruv samaradorligini oshirish, risklarni aniqlash va ularni boshqarish vositasi sifatida qarashni ilgari suradi [3].

Mahalliy olimlardan Z.Omonova o'zining tadqiqotlarida ichki audit tizimini mustahkamlash va uning samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalar beradi hamda budget tashkilotlarida ichki auditning samarali faoliyati orqali resurslarning oqilona boshqarilishi va boshqaruv jarayonlarining shaffofligi ta'minlanishi mumkinligini ko'rsatadi.

T.Po'latov o'zining ilmiy ishlarida xorijiy tajribalarni tahlil qilarkan, ularning O'zbekiston sharoitiga moslashtirilishi bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi, shu jumladan normativ-huquqiy bazani mustahkamlash, riskga asoslangan yondashuvni joriy etish, auditorlar malakasini oshirish va audit mexanizmlarini

modernizatsiya qilishning zarurligini ta'kidlaydi. U budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish va uni yanada samarali qilish orqali davlat resurslaridan foydalanish nazoratini kuchaytirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda xalqaro standartlarga mos boshqaruv tizimini yaratish mumkinligini ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ichki auditning xalqaro professional standartlari ichki audit sifatini nazorat qilish tizimini ichki audit faoliyatini tashqi va ichki baholash orqali belgilangan sifat mezonlariga muvofiqligini tekshirish va uning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash usullari majmui sifatida belgilaydi. Shu bilan birga, xalqaro standartlar faqat ushbu faoliyatning chegaralarini belgilaydi, uning amalda qanday amalga oshirilishi esa har bir mamlakat tomonidan alohida tartibda belgilanadi.

Ichki audit sifatini nazorat qilish dasturi ichki auditning samaradorligi va natijadorligini baholash hamda uning faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlashni nazarda tutadi. Ushbu dastur muntazam ichki va tashqi baholashlarni hamda doimiy nazoratni o'z ichiga oladi. Dasturning har bir komponenti shunday ishlab chiqilishi lozimki, u ichki auditga tashkilot faoliyatiga foyda keltirish va uni takomillashtirishda yordam berishi, shuningdek, ichki auditning faoliyati ichki audit ta'rifiga, Xalqaro standartlarga va etik qoidalarga muvofiq amalga oshirilayotganligiga ishonch hosil qilinishini ta'minlashi kerak.

Ichki audit xizmatlari tomonidan
amalga oshiriladigan siyosat va
amaliyotning sifatini ichki baholash;

Ichki audit xizmatlarining faoliyati
sifatini va samaradorligini ichki davlat
auditi vakolatli organi tomonidan
amalga oshiriladigan tashqi baholash;


Davlat sektoridagi butun ichki audit
tizimini tashqi, mustaqil tomon
tomonidan amalga oshiriladigan
mustaqil tashqi baholash

1-rasm. Ichki va tashqi baholash dasturi

Doimiy monitoring ichki audit faoliyatining sifatini o'lchash va kundalik boshqaruvning ajralmas qismi hisoblanadi. Doimiy monitoring ichki auditni joriy boshqarish bo'yicha siyosat va protseduralarning bir qismi bo'lib, ichki auditning ta'rifi, Xalqaro standartlarga va etik qoidalarga muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lgan jarayonlar, vositalar va ma'lumotlardan foydalanadi. Ichki audit xizmatlarining sifatini tashqi baholash funksiyalarini ichki davlat audit bo'yicha vakolatli organ amalga oshiradi. Ushbu organ ichki audit xizmatlarining faoliyati samaradorligini (sifatini) baholash uchun mas'uldir. Tashqi baholashning asosiy vazifalaridan biri davlat sektorida ichki auditning to'liq mustaqilligi va sifatini monitoring qilishdir. Buning uchun markaziy davlat va mahalliy ijro organlarida tashkil

etilgan turli ichki audit bo'limlarining ish sifatini tashqi tekshiruvlar orqali baholash talab etiladi. Ichki davlat audit bo'yicha vakolatli organ ichki audit xizmatlarining samaradorligini riskga asoslangan yondashuv va boshqa tanlash indikatorlari (masalan, kelib tushgan shikoyatlar yoki ommaviy axborot vositalarida ko'tarilgan masalalar) yordamida baholaydi.

Oliy ta'lim muassalarida ichki audit bo'limining tashkiliy bo'ysunish tizimi aks ettirilgan. Unda rektor, moliya va iqtisod ishlari prorektori hamda iqtisod departamenti boshlig'i orqali shakllanadigan ma'muriy boshqaruv zanjiri, shuningdek, ichki audit bo'limining Kuzatuv kengashi bilan bevosita aloqasi ko'rsatilgan. Bunday tuzilma ichki audit faoliyatining mustaqilligi, xolisligi va boshqaruv organlari oldidagi hisobdorligini ta'minlashga xizmat qiladi.



2-rasm. Oliy ta'lim muassalarida ichki audit bo'limining tashkiliy bo'ysunishi

Rasmdan ko'rinadiki, ichki audit bo'limining ma'muriy jihatdan universitet rahbariyatiga, funksional jihatdan esa Kuzatuv kengashiga bo'ysunishi samarali nazorat tizimini shakllantiradi. Mazkur yondashuv moliyaviy va operatsion jarayonlarni xolis baholash, risklarni o'z vaqtida aniqlash, budget mablag'laridan oqilona foydalanish hamda universitet faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, resurslardan samarali foydalanish, tashkilot oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish hamda risklarni baholash va boshqarish ichki nazoratning strategik vazifalari sifatida ko'rsatilgan. Bu esa ichki nazorat tizimi faqat tekshiruv funksiyasini emas, balki boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizm ekanini anglatadi.

Shu sababli korxonaning ichki nazorati yaxshi yo'lga qo'yilishi va ushbu

sohaning mutaxassislari tomonidan amalga oshirilishi natijaviylikni oshiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, ichki nazoratni samarali tashkil etish bo'yicha xalqaro darajada tan olingan COSO modeli ichki nazoratni 5 ta komponentdan iborat ravishda tashkil etilishi va baholanishini talab etadi.

Ichki audit tizimini baholash metodlari sifatida "So'rovnomalar"lar (chek-list) qo'llaniladi. So'rovnomalar xalqaro amaliyotda ichki auditorlar tomonidan ham tashqi auditorlar tomonidan ham qo'llanilib keladi va auditorlik dalillarni yig'ish metodlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

XULOSA

Budjet tashkilotlarida ichki audit samaradorligini oshirish muhim boshqaruv vazifasi hisoblanadi, chunki u moliyaviy resurslarning oqilona, maqsadli va qonuniy ishlatilishini ta'minlash, moliyaviy intizomni mustahkamlash va moliyaviy qonunbuzarliklarning oldini olishga xizmat

qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ichki audit tizimining samaradorligi nafaqat nazorat va tekshiruv vositasi sifatida, balki tashkilot faoliyatining shaffofligini va hisobdorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Samaradorlikni oshirishning asosiy yo'nalishlari sifatida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, audit xodimlarining kasbiy malakasini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish hamda xalqaro audit standartlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, risklarga asoslangan yondashuv, audit rejalashtirish jarayoni va audit natijalaridan boshqaruv qarorlarida samarali foydalanish budjet mablag'laridan oqilona foydalanish va moliyaviy risklarni kamaytirishga imkon beradi. Umuman olganda, ichki auditning samaradorligini oshirish orqali budjet tashkilotlari moliyaviy nazoratni mustahkamlash, resurslarni tejash va boshqaruv sifatini yaxshilashga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 377-sonli qarori 14.08.2023-yil.
2. Guthrie, James. Public Sector Audit of Programmes and Management in Australia — maqola, Managerial Auditing Journal, Vol. 2, No. 3, 1 March 1987.
3. Sawyer, Lawrence B., Morry Dittenhofer, and James H. Scheiner. Sawyer's Internal Auditing: The Practice of Modern Internal Auditing. 5th ed. Altamonte Springs, FL: The Institute of Internal Auditors, 2003.
4. Ostanaqulov M. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. — T.: Iqtisod-Moliya, 2009. 428 b.,
5. Вахобов А.В. Сирожиддинова.З.Х. Государственный бюджет. — Т.: Iqtisod-Moliya, 2007, 432 с.,
6. Mexmonov S.U. Budjet hisobi. — T.: Fan va texnologiya, 2012. - 352 b., To'ynov B.I. Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy-iqtisodiy ta'minotini budjetlashtirish. Elektron jurnal. 30.12.2016. Nomer: №12(108)-2016
7. Sherov A. Oliy ta'lim muassasalariga budjetdan tashqari mablag'larni jalb etishni takomillashtirish. Elektron jurnal. 30.03.2017. №3 (111)-2017.
8. G'aniyev Sh.V. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish (ta'lim tizimi misolida)avtoref. iqt. fan. nom.—T.: 2008.